

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING INGLIZ TILINI O'QITISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUV SIFATIDAGI ROLI

**Tuychiyeva Dilso'z Sodiqjon qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti

“Xorijiy filologiya” kafedrası

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi

1-kurs talabasi

[dilsoztuychiyeva5@gmail.com](mailto:dilsoztuychiyeva5@gmail.com), +998 992621902

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy davrda sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tili o'rganish jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri va o'rni tahlil qilinadi. Bugungi kunda ChatGPT, Grammarly, Duolingo, Ibrat farzandlari, Elsa Speak kabi intellektual dasturlar til o'rganuvchilarga mustaqil mashq qilish, talaffuzni takomillashtirish, grammatik xatolarni tuzatish hamda foydali muloqot muhitini yaratish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, maqolada bu vositalarning ijobiy va salbiy jihatlari, ya'ni o'quvchilarda ishtiyoq, motivatsiyani oshirish; o'qituvchilarga yordam berish bilan bir qatorda, mustaqil fikrlash va ijodkorlik darajasining pasayish xavfi ham yoritiladi. Sun'iy intellektning ingliz tili ta'limidagi ahamiyati, uning ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilish yo'llari hamda kelajakka qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy tahlil olib boriladi. Tadqiqot natijalari AI texnologiyalaridan cheklangan holda va maqsadli foydalanish zarurligina ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, ingliz tili o'rganish, raqamli ta'lim, ChatGPT, Duolingo, til kompetensiyasi, texnologik yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и влияние технологий искусственного интеллекта на процесс изучения английского языка в современную эпоху. В настоящее время такие интеллектуальные приложения, как ChatGPT, Grammarly, Duolingo, Ibrat Farzandlari и Elsa Speak, предоставляют изучающим язык возможность самостоятельно тренироваться, совершенствоваться произношение, исправлять грамматические ошибки и создавать эффективную коммуникативную среду. Вместе с тем в статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны этих инструментов — в частности, повышение интереса и мотивации учащихся, помощь преподавателям, а также риск снижения уровня самостоятельного мышления и креативности. В исследовании проводится научный анализ значения искусственного интеллекта в обучении английскому языку, способов его эффективной интеграции в систему образования и возможного влияния на будущее. Результаты исследования показывают необходимость целенаправленного и ограниченного использования технологий ИИ.


**Ключевые слова:** искусственный интеллект, изучение английского языка, цифровое образование, ChatGPT, Duolingo, языковая компетенция, технологический подход.

### Tahlil va natijalar


Tadqiqot jarayonida sun'iy intellektning ingliz tili o'rganishga ta'sirini aniqlash maqsadida 17 yoshdan 37 yoshgacha bo'lgan 20 nafar respondent o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Ishtirokchilar ingliz tili sohasiga aloqador shaxslar bo'lib, ular orasida talabalar, o'qituvchilar va professorlar mavjud edi. So'rovnoma natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi.

Birinchi savol "Sun'iy intellekt ingliz tili o'rganishingizga qanday ta'sir ko'rsatgan?" tarzida berildi. Natijalarga ko'ra, 81% (13 nafar) ishtirokchi sun'iy intellekt vositalari ingliz tili o'rganish jarayonida foydali va samarali ekanini ta'kidladi. Biroq, 19% (3 nafar) respondent ushbu texnologiyalardan foydalanmaganliklarini bildirdi. Bu esa ayrim o'quvchilar orasida hali ham an'anaviy o'qitish usullariga tayanish holatlari mavjudligini ko'rsatadi.

1-savol: Sun'iy intellekt ingliz tili o'rganishga ta'siri




2-savol: Qaysi ko'nikmani yaxshilash mumkin?



Ikkinchi savolda ishtirokchilardan "AI yordamida qaysi ko'nikmani yaxshilash mumkin deb o'ylaysiz?" degan savolga javob berish so'raldi. Natijalarga ko'ra, 62% (12 nafar) ishtirokchi yozma (writing) ko'nikmasini, 38% (6 nafar) ishtirokchi esa og'zaki nutq (speaking) ko'nikmasini rivojlantirishda sun'iy intellekt samaraliroq deb hisoblashdi. Ushbu natija AI vositalari, jumladan ChatGPT, Grammarly kabi dasturlar yozma nutqni takomillashtirishda ko'proq qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

Uchinchi savolda "Sun'iy intellektning kamchiliklari afzalliklaridan ko'proq deb o'ylaysizmi?" degan savol berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 6 nafar ishtirokchi "ha" deb javob berib, AI texnologiyalarining ayrim salbiy jihatlarini ta'kidladi. Yana 6 nafar ishtirokchi "yo'q" deb, uning afzalliklari ustunligini bildirdi. 4 nafar respondent esa betaraf fikr bildirib, "sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari muvozanatda" ekanini qayd etdi.

3-savol: AI afzalliklari va kamchiliklari nisbati



Umuman olganda, o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellekt ingliz tili o‘rganish jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Biroq, undan samarali foydalanish uchun foydalanuvchilarda texnologik savodxonlik, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Statistik ma‘lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, AI texnologiyalaridan foydalangan shaxslar grammatikani tezroq o‘lashtiradi, biroq nutq muloqotida hali ham insoniy aloqaga ehtiyoj seziladi.

Izlanishga ko‘ra, AI vositalarining eng samarali jihatlari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchining bilim darajasiga moslashtirilgan mashqlar yaratish;
2. Xatolarni tez tahlil qilish va to‘g‘rilash takliflari berish;
3. Real muloqot muhitini sun‘iy tarzda modellashtirish;
4. Vaqt va joy chegarasini yo‘qotish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun‘iy intellekt ingliz tili ta‘limida inson omilini to‘liq almashtirmasligi, biroq o‘qituvchini ko‘makchi vosita sifatida samarali qo‘llanilishi mumkinligini isbotladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tili ko‘pgina sabablarga ko‘ra o‘rganilishi tavsiya etiladigan til, shuningdek tadqiqot orqali shuni bildikki, sun‘iy intellektning ingliz tili o‘rganishga ko‘magi sezilarli darajada foydali ekan. Biroq, agar insonlar sun‘iy intellektidan aniq maqsad, re‘ja va tartib bilan ulardan foydalanmasa, sun‘iy intellekt vaqtni behuda ketishiga, boshqa narsaga chalg‘ishga, samaradorlikni pasaytirishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, sun‘iy intellekt dasturlari va texnologiyalardan oqilonalik, tanaffus va e‘tibor bilan foydalanish tavsiya etiladi. Umuman olganda, AI texnologiyalarini to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta‘lim strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish — ingliz tilini o‘rganish sifatini oshirish va zamonaviy ta‘lim samaradorligini yanada kuchaytirishning ishonchli yo‘lidir.

### **Foydalanilgan asarlar**

1. Nigora Xodjamqulova, Rano Murodova. O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar: sun‘iy intellektning roli. // *Uzbek Journal of Foreign Philology*. – 2024.
2. Dilnoza Saidkodiroya. Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganishda sun‘iy intellekt: o‘qituvchilar uchun imkoniyat va muammolar. // *International Scientific Journal of Education and Innovation Studies*. – 2023.
3. Tek Mani Karki, Bishal Karki. Ingliz tili ta‘limiga sun‘iy intellektni integratsiya qilish: imkoniyatlar va muammolar. // *Dristikon: A Multidisciplinary Journal*. – 2025. – *Nepal Journals Online (NepJOL)*.
4. Abdullah Alenezi. Sun‘iy intellekt texnologiyalariga o‘qituvchi va talabalarning munosabati (ingliz tili ta‘limi misolida). // *Arab World English Journal (AWEJ)*. – 2025.
5. Ali Hekmat. Sun‘iy intellekt va til o‘rganishning kelajagi: pedagogik yondashuv. // *Journal of Educational Technology and Innovation*. – 2024.

6. Enik Rukiati, Tek Mani Karki. Sun'iy intellekt asosida ta'lim yondashuvlari: ingliz tili o'rganuvchilarining ko'nikmalarini rivojlantirish tajribasi. // Asian Journal of Education Research. – 2023.